

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 121 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	



YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Allayarov Suxrob Rustamovich

PhD, TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası dotsenti

ORCID: 0000-0002-0565-3938

E-mail: s.allayarov@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada global ekologik muammolar va ularni bartaraf etishdagi ilmiy-nazariy hamda amaliy yondashuvlar tahlil qilingan. Xususan, iqlim o'zgarishi, texnologik va tabiiy ofatlar, bioturlilikning kamayishi, resurslardan samarasiz foydalanish kabi salbiy tendensiyalar jahon ekologik xavfsizligi uchun jiddiy tahdid sifatida ko'rib chiqilgan. YUNESKO hamda xalqaro tashkilotlar pozitsiyasi, 1960–1970 yillarda shakllangan ekologik harakatlar va ularning huquqiy, siyosiy hamda ilmiy asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning neoklassik iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liq jihatlari hamda tabiiy resurslarni baholash masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavf, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish, YUNESKO, global tahdidlar, tabiiy resurslar, energiya inqirozi, xalqaro hamkorlik, biologik xilma-xillik.

Abstract: The article analyzes global environmental problems and the scientific-theoretical as well as practical approaches to their solution. In particular, climate change, technological and natural disasters, the decline of biodiversity, and the inefficient use of resources are considered as serious threats to global ecological security. The positions of UNESCO and international organizations, as well as the ecological movements formed in the 1960s–1970s and their legal, political, and scientific foundations, are highlighted. Furthermore, the article examines the formation and development stages of the green economy concept, its interrelation with neoclassical economics, and the issues of evaluating natural resources.

Key words: environmental risk, green economy, environmental economics, sustainable development, UNESCO, global threats, natural resources, energy crisis, international cooperation, biodiversity.

Аннотация: В статье анализируются глобальные экологические проблемы и научно-теоретические, а также практические подходы к их решению. В частности, изменение климата, техногенные и природные катастрофы, сокращение биоразнообразия и неэффективное использование ресурсов рассматриваются как серьезные угрозы для глобальной экологической безопасности. Освещены позиции ЮНЕСКО и международных организаций, а также экологические движения 1960–1970-х годов и их правовые, политические и научные основы. Кроме того, в статье рассматриваются формирование и этапы развития концепции зеленой экономики, её взаимосвязь с неоклассической экономикой и вопросы оценки природных ресурсов.

Ключевые слова: экологический риск, зеленая экономика, экономика окружающей среды, устойчивое развитие, ЮНЕСКО, глобальные угрозы, природные ресурсы, энергетический кризис, международное сотрудничество, биологическое разнообразие.

KIRISH

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi, tabiiy va texnogen ofatlarning tez-tez va keng ko'lamda sodir bo'lishi, o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining kamayishi, o'rmon maydonlarining qisqarishi kabi salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Jahon ekologik inqirozi yaqqol ko'zga tashlanmoqda, uni bartaraf etish uchun davlat rahbarlari, xalqaro jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati tomonidan tezkor choralar ko'rilishi zarur. Ushbu inqiroz ko'p



jihtadan aholi sonining keskin o'sishi va ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan bog'liq. Sanoat inqilobiga qadar inson va xo'jalik faoliyatining ekologiyaga ta'siri ancha past darajada edi. Shu sababli, ko'plab olimlar tabiiy boyliklar tugamasligini va inson tabiiy resurslardan cheksiz foydalanishi mumkinligini ta'kidlaganlar.

YUNESKO resurslardan foydalanishni rejalashtirish tarafdori bo'lgan birinchi hukumatlararo tashkilot edi: "Jamiyat va har bir inson uchun ular bilan bog'liq oqibatlarni e'tiborsiz qoldiradigan bir maqsadli harakatlar o'rniga, atrof-muhitning yomonlashuvi va ekotizimlarning kamayishini tuzatish, biosferaning mahsuldorligini saqlab qolish va hatto uni yaxshilash uchun resurslarni boshqarish bo'yicha rejalashtirilgan dasturlarni amalga oshirish kerak". 1960-yillar tabiatni muhofaza qilish harakatlari uchun qulay davr bo'ldi. 1967-yilda atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar muammolariga huquqiy yechim topish maqsadida Ekologik himoya jamg'armasi (EFJ) tashkil etildi. Aslida, birinchi choratlardan biri FIZning Saffolk okrugidagi chivinlarni nazorat qilish komissiyasiga Long-Aylend botqoqlilari ustiga DDT sepgani uchun jinoyiy ish qo'zg'atish to'g'risidagi qarori bo'ldi. Kanadada 1963-yilda Kanada milliy va viloyat bog'lari assotsiatsiyasi, 1967-yilda Kanadadagi Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi va 1970-yilda Sierra klubining Kanada bo'limi tashkil etilgan. Biroq, 1970-yillarda tendentsiya rasmiy uyushmalarga o'zgardi, masalan: 1970-yilda Tabiatni muhofaza qilish kengashi jamg'armasi; 1971-yilda "Grin-pis"; 1971-yilda "Yer do'stlari" (faoliyati tabiat halokatining oldini olish, turlarni saqlab qolish va fuqarolarning qaror qabul qilishdagi roliga bag'ishlangan himoya tashkiloti); 1972-yilda uchinchi dunyo mamlakatlarining atrof-muhiti va rivojlanishi; va 1975-yilda Butunjahon kuzatuv instituti. So'nggi o'n yilliklarda insoniyat oldida turgan ekologik muammolar va global iqlim o'zgarishining keskinligining ortishi, tabiiy resurslarning tez kamayishi va atrof-muhitning buzilishi kabi holatlar iqtisodiyotning an'anaviy modellari samaradorligini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Shu munosabat bilan barqaror rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi iqtisodiy tizim — yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi keng jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida shakllanmoqda.

Ushbu kontseptsianing evolyutsiyasi global siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda yuzaga kelgan murakkab jarayonlar natijasida yuzaga kelib, unga ilmiy-nazariy yondashuvlar doirasida turli xil konseptual asoslar va metodologiyalar ishlab chiqildi. Bu esa o'z navbatida yashil iqtisodiyotning nafaqat nazariy model sifatida, balki amaliy platforma sifatida rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot kontseptsiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlanib, uning ilmiy asoslari, nazariy yondashuvlari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Mualliflik yondashuvi orqali ushbu mavzu nafaqat ekologik va iqtisodiy tamoyillar doirasida, balki ularning ijtimoiy va siyosiy kontekstlari bilan ham uyg'unlashtirilgan holda yoritishga intiladi. Shu tariqa, maqola yashil iqtisodiyotning zamonaviy dunyodagi o'rnini chuqurroq anglash va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yangi nazariy va metodologik yo'nalishlar ochishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik xavf va kelajak avlodlarni himoya qilish zarurligi haqidagi ilk xulosalardan biri J.Mill tomonidan shakllantirilgan[1]. XX asr boshlarida V.Vernadskiy tomonidan biosfera va uning insoniyat ta'sirida o'zgarishi haqidagi ta'limot shakllantirildi. Yangi paydo bo'lgan ilmiy qarashlar tizimi dunyo jamoatchiligi oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global ekologik muammolar va tahdidlarni oldindan ko'ra bildi[2]. XX asrning o'rtalariga kelib, insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta'siri tufayli yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni asoslovchi ilmiy ishlar paydo bo'ldi. D. Medouz[3]. ishlarida jahon ijtimoiy-iqtisodiy dinamikasini matematik modellashirish asosida yaqin kelajakda foydali qazilmalar zahiralarning kamayishi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid bo'lishi mumkinligi to'g'risida xulosa qilingan. 1972-yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan BMTning tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha birinchi konferensiyasida Atrof muhit to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilindi, u "eng yuqori darajada keng ko'lamli ekologik muammolarni hal qilish uchun kompleks, muvozanatli yondashuvga asos soldi[4]. Ayres R.U. va Kneese A.V fikriga ko'ra, yashil iqtisodiyotning eng muhim xususiyati shundaki, u "ochiq tizim"ni ifodalaydi[5]. Faoliyat ko'rsatish, ya'ni odamlarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlash uchun iqtisodiyot atrof-muhitdan resurslarni (xom ashyo va yoqilg'i) ajratib olishi, bu resurslarni qayta ishlashi (iste'mol uchun yakuniy mahsulotga aylantirishi) va ularni atrof-muhitga qaytarish orqali katta miqdordagi tarqoqlashgan va/yoki kimyoviy o'zgartirilgan resurslardan (chiqindilardan) xalos bo'lishi kerak. Jacobs M. yashil iqtisodiyotni "atrof-muhitni iqtisodiy tahlilning odatiy yoki neoklassik tuzilmasiga birlashtirishga urinish sifatida tavsiflash mumkin[6]. Atrof-muhit tovarlar, tovarlar va xizmatlar yig'indisi sifatida qabul qilinadi, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi odamlar va jamiyat tomonidan baholanadi. Taniqli olimlar, masalan, Pearce D. (2002) "Yashil iqtisodiyot Qo'shma Shtatlarda 1952-yilda Prezident Truman tashabbusi bilan faqat tabiiy resurslar va atrof-muhit muammolariga yo'naltirilgan birinchi "aql markazi" yaratilgandan so'ng paydo bo'lganligini ta'kidladilar[7]. Mahalliy olimlardan, Toshboyev Bekzod Baxtiyorovichning ta'kidlashicha, yashil iqtisodiyotning rivojlanishini baholash uchun maxsus



indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi[11]. U, xususan, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi mezonlarni asosiy ko'rsatkich sifatida taklif qiladi. Shuningdek yana bir mahalliy olimlardan, Suyunov Dilmurod Xolmurodovichning fikricha yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun huquqiy-institutsional asoslarni mustahkamlash, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda iqtisodiy siyosatni ekologik talablar bilan uyg'unlashtirish muhimligini qayd etadi[12]. Biely K. (2014) ta'kidlaganidek, yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – bu ekotizimning qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari doirasida global iqtisodiyot hajmini barqaror saqlashdir[9]. 1900-yilda jahon iqtisodiyoti 600 milliard dollarga baholangan bo'lsa, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti har ikki yilda shuncha miqdorga ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, yashil iqtisodiyot doimiy o'sishni emas, balki resurslardan samarali foydalanish va tejamlilikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy jarayonlarni yaxshilashi mumkin, biroq u o'z-o'zidan butun dunyo tartibini tubdan o'zgartira olmaydi. Smulders S., Toman M., Withagen C. (2015) ta'kidlashicha, IHTT "zaif yashil o'sish" tushunchasini, UNEP esa "kuchli yashil o'sish" tushunchasini zaif va kuchli barqarorlik o'rtasidagi farqqa o'xshash tarzda ko'rib chiqadi[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston energetika tizimida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi izchil oshib bormoqda. 2024-yilda qayta tiklanadigan energiyaning umumiy energiya balansidagi hissasi 16 foizni tashkil etgan. Shu yilning oxiriga kelib prognozlarga ko'ra, elektr energiyasi ishlab chiqarishda quyosh va shamol energiyasi ulushi 18 foizga yetishi kutilmoqda. Bu, asosan, mamlakatda quyosh va shamol elektr stansiyalarining keng miqyosda ishga tushirilishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktyabr oylarida qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali 4 milliard kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgani qayd etilgan. Bunda 3,5 milliard kVt-soat ishlab chiqarish quyosh energiyasi hissasiga, 0,5 milliard kVt-soat esa shamol energiyasiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya resurslari infratuzilmasi bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi.

1 - Jadval. ¹O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya ulushi va istiqbollari

Yil / Maqsad	Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%)	Izoh
2024	16 %	Umumiy energiya balansida qayta tiklanadigan energiya ulushi
2024 (prognoz oxiriga)	18 %	Elektr ishlab chiqarishda quyosh va shamol energiyasi ulushi
2024 (yanvar-oktyabr)	–	Qayta tiklanadigan manbalardan 4 mlrd kVt-soat ishlab chiqarilgan (3,5 mlrd – quyosh, 0,5 mlrd – shamol)
2030 (strategik maqsad)	40 %	Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushi
2030 (uzoq muddatli reja)	50 %	Yashil energiyaning umumiy ulushi

2024-yil uchun belgilangan strategik maqsadga ko'ra, elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan manbalar ulushi 40 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Uzoq muddatli istiqbolda esa, yashil energiyaning umumiy energiya balansidagi ulushi 50 foizni tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Bu maqsadlar mamlakatning energiya xavfsizligini mustahkamlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish hamda global ekologik talab va majburiyatlarga javob berishdagi intilishlarini aks ettiradi.


1 <https://tashkenttimes.uz>, <https://intellinews.com> shu kabi bir qancha saytlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra tayyorlandi.



Uzbekistan Renewable Energy Market

Market Outlook

2023-2031



Key Players

- Figure represents the **global market size** and forecast from **2023-2031**.
- Year 2016-2021 are historic years, 2022 is the base/actual year and forecast is provided from 2023-2031.

Source: Growth Market Reports Analysis

Phone: +1 909 414 1393

E-mail: sales@growthmarketreports.com

1-rasm.²

Yashil iqtisodiyot g'oyasi har doim barqaror rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan va bu ikki atamani bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Yashil iqtisodiyot jarayonga, barqaror rivojlanish esa vazifaga taalluqli deb aytishimiz mumkin. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga hissa qo'shish maqsadida ishlab chiqilishi kerak. Ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyot tizimli buzilishlarga barham beradi va sayyoramizning o'tkazuvchanlik qobiliyati doirasida qolish uchun ekologik va iqtisodiy yaxlitlikni himoya qilgan holda inson farovonligi va barcha odamlar uchun teng imkoniyatlarga erishishga olib keladi. XIX asrdan boshlab tabiat resurslarining cheklanganligi, inson faoliyatining biosferaga ta'siri va ekologik xavflar bo'yicha nazariy qarashlar shakllanib bordi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik inqiroz xavfi global miqyosda sezilib, "Limits to Growth" modeli, ekologik iqtisodiyot nazariyalari va BMT tashabbuslari orqali yangi ilmiy-nazariy asoslar yaratildi. XXI asr boshidan boshlab yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilish vositasi, balki barqaror rivojlanishning markaziy paradigmasiga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini milliy rivojlanish strategiyalariga keng tatbiq etish, xususan, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tishni jadallashtirish zarur.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar bazasini mustahkamlash, xalqaro ilmiy maktablar bilan hamkorlikni kengaytirish lozim.

Ekologik ta'lim va madaniyatni oshirish orqali aholining yashil iqtisodiyot tamoyillariga ijobiy munosabatini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Soliq imtiyozlari, kredit va grantlar orqali "yashil texnologiyalar"ni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir. Yashil iqtisodiyotga oid xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etish O'zbekiston uchun ekologik xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mill, J. S. (1848). Principles of Political Economy. London: John W. Parker.
2. Vernadsky, V. I. (1926). Biosfera. Leningrad: Nauka.
3. Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J., Behrens, W. W. (1972). The Limits to Growth. New York: Universe Books.
4. United Nations (1972). Report of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration). Stockholm: United Nations.
5. Ayres, R. U., Kneese, A. V. (1969). Production, Consumption, and Externalities. American Economic Review, 59(3), 282-297.
6. Jacobs, M. (1999). Sustainable Development and Deep Ecology: An Analysis of Competing Traditions. Environmental Politics, 8(2), 115-133.

² Uzbekistan Renewable Energy Market Share, Size & Growth 2031" hisobotidan olingan.



7. Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan.
8. Pearce, D. (2002). An Intellectual History of Environmental Economics. Annual Review of Energy and the Environment, 27, 57–81.
9. Biely, K. (2014). Sustainability and Green Economy. Journal of Environmental Policy, 23(4), 501–518.
10. Smulders, S., Toman, M., Withagen, C. (2015). Growth Theory and the Environment: A Survey. Annual Review of Resource Economics, 6(1), 77–98.
11. Toshboyev, B. B. (2021). Yashil iqtisodiyot rivojlanishini baholashda indikatorlar tizimini ishlab chiqish zaruriyati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(5), 45–52.
12. Suyunov, D. X. (2022). Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari. O'zbekiston iqtisodiyoti va boshqaruvi jurnali, 2(7), 60–68.
13. Uzbekistan Renewable Energy Market (2024). Share, Size & Growth Forecast 2031. Market Research Report.
14. The Tashkent Times (2024). O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya ulushi va istiqbollari. <https://tashkenttimes.uz>
15. IntelliNews (2024). Uzbekistan Energy Sector Developments. <https://intellinews.com>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
